

## AYOLLAR BILAN IJTIMOIIY ISH TUSHUNCHASI VA UNING ILMIY NAZARIY YONDASHUVLARI

**Komilova Xilola Ikromjon qizi**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti*

*Ijtimoiy fanlar fakulteti Ijtimoiy ish yo'nalishi*

*1-kurs magistr talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ayollar bilan ijtimoiy ish olib borish hamda ayollarni ijtimoiy himoya qilish tizimi tahlil qilinadi. Maqolada ayollar bilan ijtimoiy ish tushunchasini, mazmun-mohiyatini, uning asosiy tamoyillari, ayollar bilan ijtimoiy ish olib borish jarayonini tarixiy shakllanishi va yo'nalishlari, shuningdek, ushbu jarayonni o'rganishda qo'llaniladigan yondashuvlar ko'rib chiqiladi.*

**Kalit so'zlar:** *demokratik davlat, fuqarolik jamiyati, gender tengsizlik, zo'ravonlik, ijtimoiy himoya, xotin-qizlar, globallashuv, gender yondashuv, tizimli yondashuv, psixologik yondashuv.*

## THE CONCEPT OF SOCIAL WORK WITH WOMEN AND ITS SCIENTIFIC-THEORETICAL APPROACHES

**Abstract:** *This article analyzes the system of social work with women and social protection of women. The article examines the concept, content and essence of social work with women, its basic principles, the historical formation and directions of the process of social work with women, as well as the approaches used in studying this process.*

**Keywords:** *democratic state, civil society, gender inequality, violence, social protection, women, globalization, gender approach, systemic approach, psychological approach.*

Zamonaviy jamiyat tarqaqiyotida ayollarning ijtimoiy hayotdagi o'rni va faolligi tobora kengayib bormoqda. Mamlakatimiz ham o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng, demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish jarayoni ketayotgan bir paytda onalik va bolalikning muhofazasi, ularni ijtimoiy hayotdagi huquq va imkoniyatlari ayniqsa, xotin-qizlar muammolari jamiyatimizning asosiy masalalaridan biriga aylanmoqda. Xususan davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi so'zlaridan bilishimiz mumkin – “Barchamiz uchun aziz va mo'tabar bo'lgan ayol zoti haqida haqida so'z yuritar ekanmiz, avvalambor, bizni dunyoga keltirgan, oq sut berib voyaga yetkazgan Ona siymosi oldida bosh egib ta'zim qilamiz. Yer yuzida muqaddas degan so'zga eng munosib zot bu –

avvalo, Onadir. Xalqimiz ona siymosini doimo ulug'lab, ardoqlab yashaydi. Yurtimizda onalarni sharaflab muhtasham haykallar bunyod etilgani ham shundan dalolat beradi".<sup>8</sup>

Statistik ma'lumotlarga ko'ra 2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra, O'zbekiston doimiy aholisi 38million 382ming 685 nafar bo'lib, erkaklar soni 19,3 million (50,4%atrofida) nafarni, ayollar soni esa 19,1 million (49,6% atrofida) nafarni tashkil etmoqda. Erkaklar soni ayollardan nisbatan ko'proq bo'lib, gender muvozanati barqaror saqlanib qolmoqda. Bunga ko'ra shahar aholisi qishloq aholisidan ko'proqni tashkil etadi. Hududlar kesimida O'zbekistonda (2026-yil boshidagi ma'lumotlar) eng ko'p ayollar: Samarqand viloyati (2 172,4 ming), Farg'ona viloyati (2 091,2 ming) va Qashqadaryo viloyati (1 831,6 ming) nafarni tashkil etmoqda. Eng kam ayollar: Sirdaryo viloyati (471 ming), Navoiy viloyati (548,7 ming) nafarni tashkil etmoqda.<sup>2</sup>

Bundan bilishimiz mumkinki, O'zbekiston aholisi sonining ortib borishi jamiyat hayotiga ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayon ijobiy imkoniyatlar bilan birga ayrim muammolarni ham yuzaga keltiradi. Shuningdek, hozirgi kunda ijtimoiy xizmatlarga ham talab ortmoqda, shu sababli mamlakatimizda aholiga sifatli va tez ijtimoiy xizmat ko'rsatish va ularni ijtimoiy himoya qilish maqsadida 2023-yil 1-iyul kuni "Ijtimoiy himoya milliy agentligi" tashkil etildi. Bu tashkilotning asosiy maqsadlaridan biri O'zbekistonda aholining ijtimoiy himoyasini yagona, markazlashgan va samarali tizim asosida tashkil etish hamda ijtimoiy yordamga muhtoj fuqarolarga davlat xizmatlarini sifatli yetkazib berishdan iborat. Hozirgi kun jamiyatida ayollarning ijtimoiy himoyasi va ularni qo'llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga chiqdi. Shu sababli, bugungi kunda ayollarning huquq va erkinliklarini ta'minlash sohasida islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa O'zbekistonda istiqomat qiluvchi barcha xotin-qizlarning ijtimoiy hayotda faolligini oshirishga va manfaatlariga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ayollar duch kelishi mumkun bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik, va huquqiy muammolarni bartaraf etishda ijtimoiy ish tizimining ahamiyati muhim hisoblanadi. Ijtimoiy ish tizimini tushunishdan oldin avvalo, ijtimoiy ish tushunchasiga ta'rif beradigan bo'lsak-bu insonlar, oilalar va jamiyatda mavjud barcha guruhlarning ijtimoiy muammolarini hal qilishda yordam berishga qaratilgan kasbiy faoliyat hisoblanadi. Qisqacha qilib aytganda, ijtimoiy ish-bu odamlarning hayot sifatini yaxshilashga va ularni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan faoliyatdir. Ijtimoiy ish tizimi faoliyati davomida ijtimoiy yordam va qo'llab-quvvatlash, muhtoj qatlamlarni himoya qilish (kam ta'minlanganlar, nogironlar, ayollar, bolalar, keksalar) himoya qilish, inson huquqlarini ta'minlashga ko'maklashish, ijtimoiy muammolar (ishsizlik, zo'ravonlik, kambag'allik va boshqalar)ni bartaraf etishga qaratilgan jamiyatdagi mavjud eng muhim tizimlardan biri hisoblanadi. Bu tizimda ayniqsa, ijtimoiy

<sup>8</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 08.03.2022.

<sup>2</sup> <https://stat.uz/uz/haqida/umumiy-ma-lumotlar>

himoyaga muhtoj ayollar qatlamini qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatga moslashuvi va integratsiyasini ta'minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, insoniyat jamiyati paydo bo'lgan qadimgi davrning ijtimoiy tuzumida ham ayollarda yuzaga kelgan muammolar yoki ularni himoyasini mustahkamlashga alohida ahamiyat berishgan. Chunki, dastlabki ibtidoiy jamiyatlarda ayollarning o'rni nisbatan yuqori bo'lgan. Bu matriarxat davrida mavjud bo'lib, nasl ona tomonidan yuritilgan va ayollar jamiyat hayotida muhim rol o'ynagan. Keyinchalik, jamiyat tarqqiyoti o'zgargan sari dehqonchilik, turli xil og'ir yumushlar patriarxat tizimi shakllanishiga sabab bo'la boshladi. Bu davrga kelib esa erkaklar jamiyatda roli ortib, ayollarning huquqlari cheklana boshladi. Ayollar ko'proq uy-ro'zg'or ishlari bilan shug'ullanishga majbur bo'lib, bu davrda ko'proq ayollar ona, uy bekasi, avlod davomchisi sifatida qaralgan va shuningdek, ijtimoiy va siyosiy hayotda kam ishtirok etgan. Shunga qaramay, jamiyat tarqaqqiyoti rivojlana boshlagan sari ayollar ham jamiyat hayotida faol ishtirok etishi boshlangan. Hozirgi rivojlanayotgan zamonaviy jamiyat tarqqiyotida ayollarning ijtimoiy hayotdagi o'rni va faolligi yuksak darajada ortib bormoqda. Shu bilan birga, ularni jamiyatda ijtimoiy faoliyatini olib borish jarayonida duch kelayotgan yoki duch kelishi mumkin bo'lgan bir qancha muammolarni oldini olish uchun alohida tizim ishlab chiqish muhim ahamiyat hisoblanadi, shuning uchun jamiyatda ayollarga alohida ahamiyat ko'rsatish uchun ijtimoiy ish tizimida ayollar bilan ijtimoiy ish olib borish tizimga kiritildi. Bugungi kunga "Ayollar bilan ijtimoiy ish" tushunchasi ijtimoiy ishning alohida yo'nalishi sifatida shakllanib, jamiyatda muhim masalalardan biri hisoblanadi. "Ayollar bilan ijtimoiy ish" – bu jamiyatda ayollarning ijtimoiy holatini yaxshilash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda turli ijtimoiy muammolarni bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy ish faoliyatidagi muhim tizimi hisoblanadi. Ushbu faoliyat jamiyatda ayollarning ehtiyojlari va muammolarini chuqur o'rganish asosida tashkil etiladi. Qadimgi davr tuzumida ham ayollar bilan ijtimoiy ish olib borish mavjud bir tizimi bo'lmasada, jamiyatda ularga yordam va ko'mak shakllari mavjud bo'lgan. Bu tizim bizning davrimizga kelguncha shakllanib, hozirgi kunda mavjud bir tizim holatiga keltirilgan. Ayollar bilan ijtimoiy ishning shakllanish tarixi ijtimoiy ish fanining umumiy rivojlanishi va ayollar huquqlari uchun kurash jarayonlari bilan bog'liqdir.

Ayollar bilan ijtimoiy ishning shakllanish bosqichlari:

1. Dastlabki bosqich (xayriya va diniy yordam davri)- qadimgi davrlardan XIX asrgacha davrdagi ayollarga nisbatan jamiyatdagi ijtimoiy yordamlar asosan xayriya tarzida berish boshlangan. Ayollarga diniy tashkilotlar, xayriya jamg'armalari yoki boy oilalar tomonidan amalga oshirilgan. Bunday yordam ko'rsatiluvchi ayollar jamiyatda "yordam oluvchi zaif qatlam" sifatida qaralgan.

2. XIX asr oxiri-ijtimoiy islohotlar davri – bu davrga kelib sanoatlashuv va shaharlarning kengayishi sababli kambag'allik, ayollar mehnati ekspluatatsiyasi, bolalar

va onalar muammolari kuchaydi. Buning natijasida ayollarni himoya qilish, ish sharoitlarini yaxshilash va ayollarning ham ta'limiga e'tibor berish g'oyalari paydo bo'ldi.

3. XX asr boshlari professional ijtimoiy ishning shakllanishi bilan bog'liq davr hisoblanadi. Bu bosqichda ijtimoiy ish alohida kasb sifatida shakllana boshlagan va ta'lim tizimida o'qitish boshlandi. Ayollar bilan ishlash yo'nalishida onalar va bolalarni himoya qilish, oilaviy muammolarni hal etish va ayollarni jamiyatga moslashtirish jihatlariga e'tibor qaratila boshlandi.

4. XX asr o'rtalari-davlat siyosati darajasiga chiqish davri hisoblanadi. Ikkinchi jahon urushidan keyin ayollar mehnat bozoriga keng jalb qilina boshlandi, ijtimoiy himoya tizimi kengaydi. Bundan tashqari davlatlarda ayollar huquqlarini himoya qilish qonunlarini qabul qilish boshlandi. Bu esa ijtimoiy xizmatlar tizimini rivojlantirdi.

5. XX asr oxiri- ayollar bilan ijtimoiy ish yangi bosqichga chiqdi. Bu davrda gender tenglik konsepsiyasi shakllandi va shuningdek, zo'ravonlikka qarshi dasturlar ishlab chiqildi. Ayol endi yordam oluvchi emas, balki jamiyatda faol ishtirokchi va qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida ko'rila boshladi.

6. Zamonaviy davr (XXI) – Hozirgi kundgi ayollar bilan ijtimoiy ish ilmiy asoslangan, professional va davlat siyosati darajasidagi tizimga aylangan. Inson huquqlari va gender siyosat hozirgi kunga kelib takomillashtirilgan bo'lsada, jamiyatda ayollar hozirgi kunda ko'pincha gender tengsizlik, iqtisodiy qaramlik, zo'ravonlik, ishsizlik yoki ta'lim imkoniyatlarining cheklanganligi singari muammolarga duch kelmoqda. Shu sababdan, ayollar bilan ijtimoiy ish faoliyati ularni mavjud muammolarini bartaraf etishga ko'maklashish, huquq va manfaatlarini himoya qilish, jamiyatda ijtimoiy faolligini oshirish va ularning bandlik darajasini oshirishga ko'maklashishni nazarda tutadi.

Bizning islomiyat tariximizda Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) davrida ham ayollar mavqei e'zozlangan. Bu davrda ham ayollar jamiyat hayotida faol ishtirok etgan. Bunga misol tariqasida Xadicha (r.a.) savdogar va iqtisodiy jihatdan mustaqil ayol bo'lgan. Oysha (r.a.) ilm, fiqh va hadis rivoyatida yetakchi olim hisoblangan. Islom tarixida ayollar bilan ijtimoiy ish alohida fan sifatida emas, balki diniy va ijtimoiy yordam ( zakot, sadaqa, vaqf) orqali shakllangan. Islom ayollarga himoya va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni ta'minlab, ularning jamiyatdagi mavqegini mustahkamlashga katta hissa qo'shgan. Bundan bilishimiz mumkun jihati shundaki, qadimgi davr tuzumida ham jamiyatda ijtimoiy himoyaga muhtoj, zaif qatlamlariga nisbatan yordamlik hissi mavjud bo'lgan. Ayollar bilan ijtimoiy ish tarixan xayriya faoliyatida shakllangan bo'lsada hozirgi kunga kelib, ilmiy asoslangan, professional va davlat siyosati darajasida tizimga aylangan. Bugungi kunda ayollar bilan ijtimoiy ish tizimi rivojlanishi jarayonida bir nechta turlarga ajratib va bunga doir davlat tomonidan ijtimoiy dasturlar ishlab chiqilmoqda. Ayollar bilan ijtimoiy ish olib borish jarayonida ularni guruhlarga ajratib ijtimoiy faoliyat olib borish, ijtimoiy hodimlarni mijozlarga yanada aniqroq va professional xizmat ko'rsatishga yordam beradi. Bular

quyidagicha bo'lishi mumkun: qiyin hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan ayollar bilan ijtimoiy ish, imkoniyati cheklangan ayollar bilan ijtimoiy ish, migrant ayollar bilan ijtimoiy ish, yolg'iz keksa ayollar bilan ijtimoiy ish, deviant xulq-atvor toifadagi ayollar bilan ijtimoiy ish, boquvchisini yo'qotgan yoki farzandini yolg'iz tarbiyalayotgan ayollar bilan ijtimoiy ish, qishloq joyda yashovchi ayollar bilan ijtimoiy ish va boshqalar. Bu jarayon jamiyatda ayollar bilan ijtimoiy ish olib borish jarayonida sifatli xizmat ko'rsatishga va tizimni takomillashtirishga yordam beradi. Mahalladagi ijtimoiy hodim o'ziga belgilangan hudud bo'yicha mavjud bo'lgan ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan ayollarni o'rganib, ularni qatlam bo'yicha guruhlab alohida ijtimoiy ish olib boradi. Bu ijtimoiy hodimni ish jarayonini osonlashtiradi va mavjud dasturlar va ijtimoiy yordamlar bo'yicha o'z mijoziga ijtimoiy yordamini professional tarzda berishga erishadi. Bizning tadqiqot mavzuyimiz asosan qishloq joyda yashovchi ayollar bilan ijtimoiy ish olib borish jarayoniga qaratilgan.

Qishloq joylarda ayollar bilan ijtimoiy ish – bu qishloqda yashovchi ayollarning jamiyatda duch kelishi mumkun bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va psixologik muamolarini hal qilish ko'maklashish, bartaraf etish, psixologik muammolarni hal qilish va vujudga kelishi mumkun bo'lgan muammolarni oldini olish, shuningdek, ularning hayot sifatini yaxshilash hamda jamiyatda ijtimoiy faoliyatini oshirishga qaratilgan professional ijtimoiy faoliyat turi hisoblanadi. Ijtimoiy ish tizimidagi bu yo'nalish jamiyatimizda muhim hisoblanadi, chunki qishloq ayollari ko'pincha jamiyat hayotida shahar ayollariga nisbatan ko'proq qiyinchiliklarga va ijtimoiy muammolarga duch keladi. Qishloq ayollari bilan ijtimoiy ish olib borishning asosiy maqsadlaridan biri ayollarning ijtimoiy himoyasini ta'minlash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni iqtisodiy jihatdan mustaqil qilish, qishloq ayollarini ham tadbirkorlikka, ta'lim va bandligini oshirishga hissa qo'shish, turli xil zo'ravonliklarni oldini olish va shuningdek, gender tenglikka erishish hisoblanadi. Qishloq joylarda ijtimoiy hodim o'z faoliyati davomida ko'pincha ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar- ishsiz ayollar, kam ta'minlangan oilalardagi ayollar, yolg'iz onalar, nogironligi bo'lgan ayollar yoki ijtimoiy xavf ostidagi ayollar bilan ishlash ijtimoiy ish hodimining vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda ijtimoiy hodimlar maslahad berish, ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish, ijtimoiy yordam ko'rsatish, ta'lim va kasbiy tayyorgarlik dasturlarini tashkil etish va jalb etish, psixologik qo'llab-quvvatlash kabi usullardan foydalanib ayollar bilan ijtimoiy ish olib boradilar.

Ayollar bilan ijtimoiy ishni samarali tashkil etish uchun avvalo uning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish muhimdir. Bu sohada bir nechta ilmiy-nazariy yondashuvlar mavjud bo'lib, ular ayollarning ijtimoiy muammolarini tahlil qilish va ularni bartaraf etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Gender yondashuv- jamiyatda ayollar va erkaklar o'rtasida mavjud bo'lgan ijtimoiy tengsizlikni o'rganishga qaratilgan. Bu yondashuvga ko'ra ayollarning ko'plab ijtimoiy muammolari, jamiyatda shakllangan gender stereotiplar va ijtimoiy rollar bilan bog'liqdir.

Gender yondashuv ijtimoiy ish jarayonida ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga, ularni jamiyatda ijtimoiy tengsizlikka duch kelishini oldini olishda hamda ularning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirishga yordam beradi.

Sotsiologik yondashuv- jamiyatda ayollarni muhim ijtimoiy-demografik guruh sifatida o'rganadi. Sotsiologik tahlil ayollarning jamiyatdagi ijtimoiy maqomi, bandlik darajasi, ta'lim olish imkoniyatlari, oliyiy holati hamda turmush darajasini aniqlashga yordam beradi. Bu esa ayollar bilan ijtimoiy ish olib borishda ilmiy asoslangan dasturlar va strategiyalar ishlab chiqish imkonini yaratadi.

Psixologik yondashuv- jamiyatda ayollarning psixologik holati, ularni ijtimoiy muhitga moslashuvi hamda turli stressli vaziyatlarga munosabatini o'rganishga qaratilgan yondashuvdir. Ijtimoiy ish jarayonida psixologik maslahat, psixologik treninglar va qo'llab-quvvatlash dasturlari ayollarning ruhiy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Huquqiy yondashuv- jamiyatda ayollarning konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash, ularning mehnat, ta'lim va ijtimoiy himoya sohasidagi huquqlarini himoya qilishga qaratilgan yondashuvdir. Ijtimoiy ish jarayonida ayollarning huquqiy savodxonligini oshirish, ularni turli diskriminatsiya holatlaridan himoya qilish hamda huquqiy maslahatlar berish muhim hisoblanadi.

Tizimli yondashuv- ayollarning ijtimoiy muammolari faqat individual muammolar bilan emas, balki oila, mahalla, iqtisodiy muhit va davlat siyosati kabi omillar bilan bog'liqdir. Ijtimoiy jarayonida ayollarning muammolarini kompleks tarzda tahlil qilish va turli tashkilotlar o'rtasida hamkorlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, ayollar bilan ijtimoiy ish jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, gender tengsizliklarni oldini olish hamda gender tenglikni rivojlantirish va ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim yo'nalishdir. Ushbu faoliyatning ilmiy-nazariy yondashuvlari ayollarning ijtimoiy muammolarini chuqur o'rganish hamda ularni bartaraf etishga samarali mexanizmlarni ishlab chiqishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 08.03.2022.
2. <https://oilamalaka.uz/wp-content/uploads/2024/03/oilalarni-ijtimoiy-qollab-quvvatlash-maruza.pdf>
3. <https://uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar/6983-o-zbekiston-%E2%80%93-ayol-qadri-ulug-langan-yurt.html>
4. <https://stat.uz/uz/haqida/umumiy-ma-lumotlar>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi